



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 576 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalariidan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерлепесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
Fayziyeva Umida Asadovna	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumalarning nahviy tahlili	328
Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi	
Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari...	337
Raximov Azizbek Normurodovich	
Biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi	342
Ibodova Mahfuza Namozovna	
Ta'limni tashkil etishning pedagogik omillari	346
Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Hazratkulova Lobar To'rabek qizi	
5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish	350
Botirova Sayyora Nurullayevna	
Talabalarda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari	354
Aymanova Shiyrinay Kamilovna	
Yosh ofitserlarda xizmat rezistentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar	357
Rejаметова Irada Ikramshikovna	
Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	363
Yusufzoda Shabnami Yunus	
Преимущества использования STEAM технологий в дошкольном образовании.....	368
Садикова Д. Х.	
Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining pedagogik-psixologik determinantlari	371
Saliyeva Muslima Maxsetbay qizi	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining etik va huquqiy jihatlari o'qitish metodikasi	377
Turanova Aynur Baxtjan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalar alaliyasini korreksiya qilishda neyrostimulyatsiya hamda logopedik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi.....	381
Axunxodjayeva Dildoraxon G'anixon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida	384
Qilichova Marxabo Xudaykulovna	
Informatika fanini innovatsion vositalar bilan o'qitish.....	392
Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi	
Jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi....	397
Mamatxanov Nodirxon Sadridin o'g'li	
Sociolinguistic Variation in English: A Study of Dialects and Accents.....	402
Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi, Ramazonova Feruzaxon Akbarovna	
Ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal-vizual vositalar orqali voqelanishi: chog'ishtirma-pragmatik tahlil.....	405
Mo'minova Maftuna Alijonovna	
Long-Term Retention and Pragmatic Use of English Idioms Following Adaptive Instruction: A Longitudinal Follow-Up Study.....	409
Alisher Sidikov Uktamjonovich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli	418
Yangiyev Shavkat Norkobulovich	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	422
Sh. Yu. Abdunabiyeva	



Dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	428
Turamuratov Ulug'bek Uraqovich	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli	433
Raisov Shamsiddin Rashid o'g'li	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	438
Radjapov Aybek Allaberganovich	
Miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moslashuvchan dasturni ishlab chiqish va raqamli uslubiy yordam	442
Davranova Maftunabonu Elyorovna	
Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari...	448
Xalimova Ozoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini raqamli didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish	451
Sabohat Sharofiddinovna Siddiqova	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi	455
Baratova Yulduz	
Talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda sun'iy intellektning o'rni	461
Shamsudinova Malika Ulug'bek qizi	
Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari.....	464
Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich	
Muloqot va uni o'smirlik yoshida rivojlantirish masalalari	470
Orifova Sabot Yakubovna	
O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari.....	474
Safarova Dilnoza Kuchkarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barkamol yosh avlodni shakllantirishda milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	478
Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ahamiyatining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlili.....	481
Oripova A'lo O'ktam qizi	
Logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy talqinlari: nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar.....	485
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida ishonchli muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va amaliy tahlili.....	489
Gulnoza Djurakulova Shavkatovna, Ochildiyeva Shahnoza Avdivohid qizi	
Dual ta'lim sharoitida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish natijalari	494
Abdullayeva Rohilaxon Ne'matjonovna	
Probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishda psixologik xizmatning samaradorligi	500
Qayumov Ramazon Zoirjon o'g'li	
Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari va yechimlari.....	507
O'rishboyeva Xumora O'rol qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda innovatsion raqamli texnologiyalar imkoniyatlari	510
Abdulkarimova Rayxona Akmalovna	
Inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini raqamli tahlil qilishda ma'lumotlar bazasi va monitoring tizimining ahamiyati	515
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	



Value Representations in the Family-School-Student System	522
Gulbakhar Orazbayeva	
Gamified Writing Tasks and Their Impact on Learner Motivation and Text Quality	527
Islamova Nilufar Ismail qizi	
Innovatsion ta'lim metodlari va texnologiyalari asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida pedagogik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni	534
Jumanov Lochinbek Habibulla o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari...	537
Mamazokirova Robiyaxon Muhammadali qizi, Qodirova Buzulayho Turgunovna	
STEAM ta'lim texnologiyasi asosida bo'lajak tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish tizimi	543
To'raqulova Malohat Bahodir qizi	
Hozirgi o'zbek she'riyatida intertekstual talqinlar	547
Ro'ziqulova Dilbar Muzaffar qizi	
Mustaqillik va Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi	551
Erkayev Elmira Temirovich	
Yapon pedagogik tajribasini O'zbekiston oliy ta'lim muhitiga moslashtirishning didaktik shartlari.....	556
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna	
Velosportchilarda irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi va ularni rivojlantirishning psixologik jihatlarini	560
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Migrant talabalarda shaxsiy identifikatsiyani shakllantirishning pedagogik usullari.....	563
Turg'unov Ilxomjon Iqboljon o'g'li	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion usullari ...	567
Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi	
Shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy asoslari.....	571
Mansurova Lobar Luqmon qizi	



SHAXS LIDERLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING NAZARIY ASOSLARI

Mansurova Lobar Luqmon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

ORCID: 0009-0008-0547-4244

Annotatsiya: Boshqaruv uslubiga an’anaviy yondashuvdan tashqari, qator zamonaviy g’oyalar ham kirib keldiki, ularni bilish liderlik uslubini yanada ixtiyoriy idora etish imkoniyatini beradi. Umuman olganda, adabiyotda “lider” so’zini “yetakchi” atamasi bilan almashtirish hollari ko’p uchraydi. O’ylashimizcha, “yetakchi” atamasi “lider”ga xos bo’lgan psixologik tavsifni to’la ifodalay olmaydi. “Yetakchi” so’zi guruhga munosabat sifatida, uning a’zolariga ta’sir o’tkazuvchi va maqsadga yetaklovchi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Yetakchilik guruh tarkibini, undagi munosabatlar tizimini tahlil etish orqali aniqlanadigan shaxs holatidir. Lekin liderga xos bo’lgan fazilatni ifodalovchi yana qator jihatlar borki, ularni munosabatlar tizimi doirasidagina tahlil eta olmaymiz. Bunday talqinda liderga xos bo’lgan asosiy jihatlardan yana biri – shaxsning vaziyatga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyatini hisobga olish zarurati tug’iladi. Biron-bir muammoli vaziyatda paydo bo’lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir.

Kalit so’zlar: lider, liderlik, yetakchilik, liderlik uslubi, boshqaruv uslubi, zamonaviy boshqaruv, psixologik tavsif, guruh, ta’sir o’tkazish, tashabbuskorlik, topqirlik, mohirlik, muammoli vaziyat, vaziyatga moslashuv, shaxsiy fazilatlar, guruh munosabatlari, maqsadga yo’naltirish, boshqaruv, liderlik qobiliyati.

Abstract: In addition to traditional approaches to management styles, a number of modern ideas have emerged in contemporary management practice, the understanding of which enables a more flexible and deliberate regulation of leadership styles. In general, the term “leader” is often replaced by the concept of “leading person” or “leader” in the literature. In our view, the term “leading person” does not fully reflect the psychological characteristics inherent in a leader. The concept of a “leading person” is used in relation to an individual who influences group members and guides them towards the achievement of a particular goal. Leadership represents a position of an individual that is determined through the analysis of the group composition and the system of relationships within the group. However, there are a number of other aspects that characterize leadership qualities and cannot be analyzed solely within the framework of interpersonal relationships. From this perspective, it is also necessary to take into account another essential characteristic of a leader – the individual’s ability to act appropriately according to a particular situation. Initiative, resourcefulness, and skill in overcoming difficulties arising in problematic situations are important qualities inherent in a leader.

Key words: leader, leadership, leading person, leadership style, management style, modern management, psychological characteristics, group, influence, initiative, resourcefulness, skill, problematic situation, situational adaptation, personal qualities, group relations, goal orientation, management, leadership abilities.

Аннотация: Помимо традиционных подходов к стилям управления, в современную управленческую практику вошёл ряд новых идей, знание которых позволяет более гибко и осознанно регулировать стиль лидерства. В целом в научной литературе термин “лидер” нередко заменяется понятием “руководитель” или “ведущий”. На наш взгляд, термин “ведущий” не в полной мере отражает психологическую характеристику, присущую лидеру. Понятие “ведущий” используется по отношению к личности, которая оказывает влияние на членов группы и направляет их на достижение определённой цели. Лидерство представляет собой статус личности, который определяется посредством анализа состава группы и системы взаимоотношений, складывающихся внутри неё. Однако существует целый ряд аспектов, характеризующих лидерские качества, которые невозможно рассматривать исключительно в рамках системы межличностных отношений. В данном контексте необходимо учитывать ещё одну важную характеристику лидера – способность личности действовать в соответствии с конкретной ситуацией. Инициативность, находчивость и мастерство в преодолении трудностей, возникающих в проблемной ситуации, являются важными качествами, присущими лидеру.

Ключевые слова: лидер, лидерство, ведущий, стиль лидерства, стиль управления, современное управление, психологическая характеристика, группа, влияние, инициативность, находчивость, мастерство, проблемная ситуация, адаптация к ситуации, личностные качества, групповые отношения, целенаправленность, управление, лидерские способности.

KIRISH

jahonda bugungi kunda yosh avlodning ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun ular ijtimoiy aloqalarni yaratish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Shu sababli, yoshlarning jamiyatdagi faolligini ta'minlaydigan liderlik salohiyatini rivojlantirish muhim masala bo'lib qolmoqda. Bu borada sifatli oliy ta'lim nafaqat kasbiy yo'nalishdagi bilimlarni egallash, balki shaxsiy taraqqiyotni ham o'z ichiga olishi lozim. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimining vazifasi nafaqat malakali mutaxassis tayyorlash, balki shaxs sifatida yetuk, ijtimoiy faollikka ega, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va yetakchilik fazilatlariga ega yoshlarni tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, raqobatbardosh mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun talab qilinadigan yumshoq ko'nikmalar (soft skills) orasida liderlik (yetakchilik) eng muhimlaridan biri sifatida tan olinmoqda.

Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar, xususan, YUNESKO, YI Ta'lim kengashi va AQSh Milliy ta'lim assotsiatsiyasi kabi institutlar oliy ta'limda talabalar liderligini shakllantirishni ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rib chiqmoqda. Bu tendensiya oliy ta'lim muassasalarini faqat bilim beruvchi emas, balki yetakchilarni tayyorlovchi innovatsion va transformatsion markazga aylantirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Liderlikni rivojlantirishning uzluksiz tabiati D. V. Day (2001) tomonidan chuqur ilmiy asoslangan. Muallif "leader development" va "leadership development" tushunchalarini farqlab, birinchisi individual salohiyatni rivojlantirishga, ikkinchisi esa jamoaviy hamkorlik, ijtimoiy munosabatlar va umumiy faoliyatni samarali tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligini ta'kidlaydi. Dayning konsepsiyasi liderlikning butun hayot davomida rivojlanadigan uzluksiz pedagogik jarayon ekanligini ko'rsatadi.

B. J. Avolio, F. O. Walumbwa va T. J. Weber (2009) zamonaviy liderlik nazariyalarini tahlil qilar ekan, XXI asrda liderlikning mazmuni sezilarli darajada kengayganini qayd etadilar. Mualliflar autentik, etik, xizmatkor va transformatsion liderlik yondashuvlarining rivojlanishini tahlil qilib, zamonaviy liderning muvaffaqiyati uning emotsional intellekti, axloqiy qadriyatlari, kommunikativ madaniyati va o'zgarishlarni boshqara olish qobiliyati bilan belgilanishini asoslaydilar.

J. E. Dinh va hammualliflar (2014) esa zamonaviy liderlik nazariyalarining evolyutsiyasini tahlil qilib, 60 dan ortiq nazariy yondashuvlarni tizimlashtirgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda liderlikka oid ilmiy qarashlar individual xususiyatlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik, ishonch va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil etish masalalariga yo'naltirilgan. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida liderlikni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda shaxslararo munosabatlar va hamkorlik texnologiyalarining ahamiyatini yanada oshiradi.

So'nggi yillarda olib borilgan bibliometrik tadqiqotlar ham oliy ta'limda liderlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar soni keskin ortganini ko'rsatmoqda. Scopus ma'lumotlar bazasida 2013-2023-yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy ishlar tahlili liderlikni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari liderlik kompetensiyalarini shakllantirish, ta'limdagi innovatsiyalar, raqamli transformatsiya va talabalar liderligini rivojlantirish bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida mavzuning ilmiy asoslarini ochib berish va amaliy ahamiyatini aniqlash maqsadida bir nechta pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Metodlar tanlanishi maqola mazmunining mantiqiy, tizimli va ilmiy asoslangan bo'lishini ta'minlashga xizmat qildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli, akmeologik va situativ yondashuvlar tashkil etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida talabaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy faolligi hisobga olinadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa liderlik sifatlarini bevosita amaliy faoliyat, jamoaviy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va ijtimoiy hamkorlik jarayonida rivojlantirishni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuvda liderlik shaxsning bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarini real vaziyatlarda samarali qo'llay olish kompetensiyasi sifatida qaraladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Liderlik fenomenining mazmunini ochib berishga qaratilgan nazariy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur tushuncha turli ilmiy maktablar tomonidan yagona mezon asosida talqin qilinmaydi. Buning asosiy sababi liderlikning bir vaqtning o'zida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, guruhdagi ijtimoiy mavqei, faoliyat jarayonidagi xulq-atvori hamda muayyan vaziyatga mos ravishda ta'sir ko'rsatish qobiliyatini qamrab olishidadir. Shu bois liderlikni faqat boshqaruv funksiyasi yoki guruhdagi norasmiy mavqe bilan izohlash uning mazmunini toraytirib qo'yadi.



Nazariy manbalarni qiyosiy o'rganish jarayonida liderlikka oid qarashlarni shartli ravishda xususiyatli, xulq-atvoriy, situativ va integrativ yo'nalishlarga ajratish mumkinligi aniqlandi. Xususiyatli yondashuv vakillari liderlikning manbaini shaxsning nisbatan barqaror sifatlarida ko'rsalar, xulq-atvoriy yondashuv e'tiborni liderning qanday harakat qilishi va guruh bilan qanday munosabat o'rnatishiga qaratadi. Situativ yondashuv esa liderlik samaradorligini shaxsning muayyan vaziyat talablariga moslasha olish qobiliyati bilan bog'laydi. Mazkur yondashuvlarning har biri liderlikning alohida jihatini yoritishi bilan ahamiyatli bo'lsa-da, ularning biror-tasi hodisaning to'laqonli pedagogik mazmunini mustaqil ravishda izohlab bera olmaydi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizda liderlik shaxsning guruh faoliyatiga maqsadli va ijobiy ta'sir ko'rsatishi, umumiy maqsadni anglatishi va uni amalga oshirish jarayonida tashabbus ko'rsatishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, boshqa subyektlar bilan konstruktiv munosabat o'rnatishi hamda vaziyat o'zgarishiga muvofiq ravishda faoliyat strategiyasini qayta tashkil eta olishini ta'minlovchi sifatlar tizimi sifatida talqin qilindi.

Bu ta'rifda "sifatlar tizimi" tushunchasining qo'llanilishi tasodifiy emas. Chunki amaliy faoliyatda liderlikning namoyon bo'lishi bitta sifatning yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanmaydi. Masalan, shaxsning tashabbuskorligi mavjud bo'lib, biroq u kommunikativ jihatdan yetarlicha rivojlanmagan bo'lsa, tashabbusni jamoaviy faoliyatga samarali yo'naltirish qiyinlashadi. Xuddi shuningdek, kommunikativ qobiliyatning yuqoriligi mustaqil qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati bilan qo'llab-quvvatlanmasa, u to'laqonli liderlik xulqini yuzaga keltirmaydi. Demak, liderlik sifatleri o'zaro funksional aloqadorlikda namoyon bo'ladi.

Mazkur xulosaga asoslanib, tadqiqot doirasida shaxs liderlik sifatlarining tarkibiy tuzilishi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, kommunikativ, tashkiliy-faoliyat va refleksiv komponentlar birligida ko'rib chiqildi. Bunday strukturaviy yondashuv liderlikni faqat tashqi xulq-atvor ko'rinishlari orqali emas, balki uning ichki motivatsion va refleksiv mexanizmlari bilan birgalikda tadqiq etish imkonini beradi.

Motivatsion-qadriyatli komponent liderlik faoliyatining ichki manbaini ifodalaydi. Unda maqsadga intilish, mas'uliyatni his qilish, ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va jamoa manfaatlariga yo'naltirilgan qadriyatlar ustuvorlik qiladi. Mazkur komponent yetarlicha shakllanmagan sharoitda liderlikning tashqi ko'rinishlari barqaror xarakter kasb etmaydi.

Kognitiv komponent shaxsning liderlik va boshqaruv jarayoniga oid bilimlari bilan bir qatorda, vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash, muqobil yechimlarni baholash va maqbul qaror qabul qilish imkoniyatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan bilim liderlikning bevosita natijasi emas, balki uni amaliy faoliyatga aylantiruvchi intellektual vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ komponent liderlikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini belgilaydi. O'z fikrini aniq ifodalash, faol tinglash, ishontrish, fikrlar xilma-xilligini qabul qilish va konstruktiv muloqot o'rnatish qobiliyatlari jamoaga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Shu sababli kommunikativ tayyorgarlikni liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonidan ajratib ko'rish metodologik jihatdan to'g'ri emas.

Tashkiliy-faoliyat komponenti liderlikning amaliy jihatini ifodalaydi. Unda vazifalarni belgilash va taqsimlash, jamoaviy faoliyatni muvofiqlashtirish, tashabbusni amaliy harakatga aylantirish, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va uning natijasi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish kabi sifatlar mujassamlashadi.

Refleksiv komponent esa shaxsning o'z liderlik faoliyatini anglash va baholash qobiliyatini tavsiflaydi. O'zining kuchli va zaif jihatlarini aniqlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqarish hamda keyingi faoliyat strategiyasini belgilash liderlikning rivojlanish dinamikasini ta'minlovchi muhim omildir.

Tahlil natijalarining eng muhim jihatlaridan biri shundan iboratki, liderlik sifatlarining rivojlanishini faqat shaxsning ichki xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Ularning real namoyon bo'lishi uchun shaxs faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-pedagogik muhit ham tegishli imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Xususan, mustaqil qaror qabul qilishga imkon beruvchi vaziyatlarning mavjudligi, jamoaviy faoliyat, munozara va hamkorlik, muammoli topshiriqlar, mas'uliyatni taqsimlash hamda refleksiv tahlil liderlikning rivojlanishi uchun zarur pedagogik sharoitlar sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, liderlikni rivojlantirishda situativlik tamoyili alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Shaxsning bir vaziyatda samarali namoyon qilgan liderlik xulqi boshqa vaziyatda aynan shu natijani bermasligi mumkin. Demak, liderlikni baholashda faqat "shaxs lider yoki lider emas" degan dixotomik yondashuvdan foydalanish ilmiy jihatdan yetarli emas. Aksincha, liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasi, namoyon bo'lish sharoiti va vaziyatga muvofiqligini birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Natijada shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirish "sifatni shakllantirish"dan ko'ra "sifatlar tizimini faoliyatda namoyon ettirish va takomillashtirish" jarayoni ekanligi asoslandi. Mazkur xulosa tadqiqotning keyingi bosqichida liderlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqishda boshlang'ich nazariy pozitsiya sifatida qabul qilindi.



Shu asosda liderlik sifatlarining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun motivatsion, kognitiv, kommunikativ, tashkiliy-faoliyat va refleksiv mezonlarning o'zaro bog'liqligi asos qilib olinishi taklif etiladi. Bu esa, o'z navbatida, liderlik sifatlarini diagnostika qilishni faqat psixologik test natijalari bilan chegaralamasdan, shaxsning real faoliyatdagi xatti-harakati, jamoaviy munosabatlari va muammoli vaziyatlardagi qarorlarini ham hisobga olish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shaxs liderlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatdan samarali bo'lishi uchun ta'lim jarayonida talabaga tayyor boshqaruv stereotiplarini o'zlashtirishdan ko'ra, mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish, muammoli vaziyatlarni hal etish, jamoada qaror qabul qilish va o'z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish muhim hisoblanadi. Aynan shunday faoliyat shaxsda liderlikning tashqi ko'rinishlarini emas, balki uning ichki mexanizmlarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, liderlik sifatlarini rivojlantirish jarayonida situativ yondashuvning ustuvorligi asoslandi. Chunki samarali lider bir xil boshqaruv uslubini barcha vaziyatlarga tatbiq etuvchi shaxs emas, balki vaziyatning mazmuni, guruhning ehtiyoji va mavjud sharoitdan kelib chiqib, o'z faoliyatini moslashtira oladigan subyektdir. Shu nuqtayi nazardan, liderlikning muhim ko'rsatkichi sifatida vaziyatni anglash va unga mos ravishda faoliyat strategiyasini o'zgartirish qobiliyatini alohida ajratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bass B.M., Bass R. The Bass Handbook of Leadership: Theory, Research, and Managerial Applications. 4th ed. New York: Free Press, 2008. - 1296 p.
2. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. 9th ed. Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2021. - 552 p.
3. Yukl G.A., Gardner W.L. Leadership in Organizations. 9th ed. New York: Pearson, 2020. - 560 p.
4. Burns J.M. Leadership. New York: Harper & Row, 1978. - 530 p.
5. Bass B.M., Riggio R.E. Transformational Leadership. 2nd ed. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. - 296 p.
6. Goleman D., Boyatzis R., McKee A. Primal Leadership: Unleashing the Power of Emotional Intelligence. Boston: Harvard Business School Press, 2002. - 336 p.
7. Kouzes J.M., Posner B.Z. The Leadership Challenge: How to Make Extraordinary Things Happen in Organizations. 6th ed. Hoboken: Wiley, 2017. - 416 p.
8. Stogdill R.M. Handbook of Leadership: A Survey of Theory and Research. New York: Free Press, 1974. - 613 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.